

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**CHET TILLARI KAFEDRASI**

# **Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodologiyasining ahamiyati**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari to'plami**

**24 may 2023**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**CHET TILLARI KAFEDRASI**

**XORIJIIY TILLARNI O'QITISHDA  
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISH  
METODOLOGIYASINING AHAMIYATI**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**MATERIALLARI**

**24-may 2023-yil**

**Toshkent -2023**

**УДК: 4. 81**

**C - 12**

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasiga to‘g‘risida”gi buyrug‘I hamda Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2023-yil 8-maydagi 03-03/3487-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti Chet tillari kafedrasi tomonidan o‘tkazilgan “XORJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filologlar, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va talabalar, xalq ta’limi va umumta’lim maktablari o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

***Tahrir hay’ati:***

**Hay’at raisi:** **Shamsematova B.** – O‘zXIA Chet tillari kafedrasi mudiri, PhD.

**Hay’at a’zolari:** **Akbarova Sh.** – Chet tillari kafedrasi dotsenti v.b., PhD.

**Mo‘minova D.** - Chet tillari kafedrasi dotsenti v.b., PhD.

**Xodjakulova F.** - Chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi;

**Aripova K.** - Chet tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi.

**Xasanova D.** - Chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi;

**Eshboyeva D.**– Chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi;

## ***KONFERENSIYA TASHKILIY QO'MITASI TARKIBI:***

**Tashkiliy qo'mita raisi:** **Kamilov M.** – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi rektori.

**Tashkiliy qo'mita raisi**

**muovini:** **Islomov Z.** – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, f.f.d., professor.

**Tashkiliy qo'mita**

**a'zolari:** **Shirinova F.** - Chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD;  
**Abushaev A.** – Chet tillari kafedrasi katta o'qituvchisi;  
**Hafizov A.** - Chet tillari kafedrasi o'qituvchisi.  
**Melikova E.** - Chet tillari kafedrasi o'qituvchisi;

Nuriddinova F .....	90
Qarshiboyeva X, Muminov Z .....	93
Qobilova D .....	96
Rahimova M .....	100
Shamsematova B .....	103
Shukurova Z .....	105
To'xtamahmudova Z .....	108
Turakulova O .....	111
Uktamova .....	115
Xalilova H, Khoshimova R .....	117
Xodjimuratova M .....	120
Yusupova D .....	123
Валиева Н .....	127
Джумаева Н .....	130
Мадаминова Н .....	133
Муминов Д .....	136
Назарова С .....	139
Тохирова И .....	142
Усманова X .....	145
Халилова X .....	148
Шомурадова Д .....	150

<b>Til o‘rganishda AKT ni qo‘llashning yangi tendentsiyalari.....</b>	<b>153</b>
Abdulxayeva M .....	154
Baxridanova M .....	156
Danabayeva X .....	158
O‘rinboyeva M .....	161
Ubaydullayeva N .....	164
Xalilova H, Musirmanova L .....	168

# XORIJIY TILLARNI O'RGANISHIMIZ NIMA UCHUN ZARUR?

**X.K.Qarshiboyeva**  
*CHDPU o'qituvchisi*

**Z.Sh.Muminov**  
*CHDPU 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada vatanimizda tilga berilayotgan e'tibor, imkoniyatlar hamda til o'rganish sirlari va samaralari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** til,dunyo bilimlari, biznes, zamonaviy texnologiya, sayohat, do'stlar, rejim, ishonch, natija.

Insoniyatni tashqi muhitdan ya'ni hayvonat olami bilan alohida ajratib turadigan narsa, uning o'z tafakkuri va o'z tiliga egaligidir.Til odamlar orasida aloqa vazifasini bajaradi u millat ruhi, xalqning tarixidir.Til orqali odamzod tashqi muhitni o'rganib boradi va fikr olish, fikr berish ko'nikmalarini shakllantiradi. Til dunyo o'rtaida aloqa o'rnatilishining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Dunyo tillariga qaraydigan bo'lsak 7000 mingga yaqin til mavjud. Eng boy til esa Arab tili bo'lib uch yarim milliondan ortiq lug'at boyligi bor. Inglizlarning hisobida esa ikki yarim milliondan ortiq so'zi va o'zbek tilida 1.4-1.6 million atrofida so'z boyligi mavjud.

Mamlakatimizda ta'lrim sohasida tubdan o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning ta'lim tizimi to'g'risidagi bir necha qonunlari joriy qilindi. Jumladan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqtisoati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni

o'z oldimizga maqsad qilib qo'yan ekanmiz , bundan buyon mакtab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasi rahbaru faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim", -deya ta'kidladi.

Prezidentimizning "2021-yil 19-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori" qabul qilindi.

Jumladan magistratura mutaxassisliklari hamda oliy ta'limdan keying ta'lim ixtisosliklariga quyidagi tillar bo'yicha o'z darajasiga ega bo'lgan sertifikatlar joriy etildi: -Ingiliz tili, fransuz tili, nemis tili, ispan tili, italyan tili, arab tili, xitoy tili, yapon tili, koreys tili, turk tillari bo'yicha muvofiqlik darajasiga ega bo'lgan til sertifikatlari shakllantirildi.

Prezidentimiz xorijiy tillarni bilgan kasb egalariga qo'shimcha qulayliklar yaratib berdi, ya'ni xorijiy til o'qituvchilarning oylig maoshiga 50 foiz qo'shimcha ustama berish joriy etildi. 2022-yildan chet tilidan dars o'tadigan o'qituvchilarga chet tili bo'yicha xalqaro va milliy sertifikatlarning bo'lishining majburiyligi belgiladi.

"2022-yil 11-maydag'i Prezident Farmoni, 2022-yil 1-sentabrdan boshlab umumta'lim fanlari bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga

ega bo‘lgan pedagog kadrlarga quyidagi tartibda har oylik qo‘sishimcha ustama to‘lanadi:

-xalqaro tan olingan va unga tenglashtirilgan milliy sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga-ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

-xalqaro talablarga javob bermaydigan milliy sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga-ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida.

Pedagog kadrlarga har oylik qo‘sishimcha ustama sertifikat amal qilish muddati davomida, lekin uch yildan ko‘p bo‘lмаган vaqt mobaynida to‘lanadi.

Agar o‘qituvchi umumta’lim fanlari bo‘yicha bir nechta sertifikatga ega bo‘lsa, yuqoriqoq foizli ustama beruvchi sertifikat bo‘yicha ustama to‘lanadi.” Bu esa pedagoglarga juda katta rag‘bat bo‘ldi.

Biz nima uchun chet tilini bilishimiz kerak?

1. Dunyo bilimlaridan bilim oladigan bo‘lsak-deyarli bilimlarning ko‘philigini chet tilidan olamiz, chet el metodlaridan foydalansak ta’limda natija yaxshilanadi;

2. Zamonaviy texnologiyar internet ma’lumotlari chet tilida-XXI asr axborot texnologiyalar asri kundan-kunga yangi dastur yangi texnologiyalar yaratilmoqda bulardan foydalanishimizda albatta chet tili kerak;

3. Biznes-Yaxshi daromad va yaxshi ish bilan ta’minlaydi moddiy tarafimiz yaxshilanadi. Til bilsak chet elda ishlashimiz va biznes qilishimiz ya’ni yaxshi firma va kompaniyalar bilan hamkorlik qilishimiz osonlashadi, yaxshi ish va yaxshi daromad bilan ta’minlaydi;

4. O‘z ona tili haqidagi bilimlarni kuchaytiradi-chet tilini o‘rganishimizda o‘z ona tilimizga ya’ni o‘zbek tiliga qiyoslab o‘tiladi, bunda albatta o‘z ona tilimiz ham o‘rganiladi;

5. Sayohat-dunyo kezish, sayohat qiladigan bo‘lsak bizga chet tili albatta kerak va sayohatda tarjimonlik faoliyatidan ortiqcha pul sarflab foydalanmaymiz;

6. Dunyo insonlari bilan tanishamiz–do‘sstar orttiramiz, maqsadlarga qadam qo‘yamiz;

7. Boshqa davlatlarning tarixini milliyligini madaniyatini bilishimiz uchun dunyoqarashimiz kengayadi, shakllanadi, boshqa davlatlarning ma’naviy-ma’rifiy, moddiy-iqtisodiy holatlaridan boxabar bo‘lamiz;

8. Tafakkurimiz kuchayadi xotirani yaxshilaydi-yangi so‘zlar orqali yangi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz, o‘zbek tilida mavjud bo‘lмаган chet el so‘zlarini bilamiz;

9. Ijodkorligimizni rivojlantiradi.

Demak, biz uchun chet tilini shuncha foydali tomonlari bor ekan, biz uni quyidagi usullar orqali o‘rgansak yaxshigina natijaga ega bo‘lamiz, bular quyidagicha:

1. O‘zingizga bo‘lgan motivatsiyani oshiring qo‘rqmang. Til o‘rganar ekansiz faqat shu tilni sertifikat olsam degan kichik xayollar kerak emas, siz o‘sha til o‘rganiyotgan davlatga ham qiziqing, ularning madaniyati ma’rifatini bilgan holda o‘rgansangiz ajoyib natijani ko‘rsatadi;

2. Rejim-til o‘rganishda rejim juda-juda zarur, o‘zingizda tartib intizomni o‘rnatmas ekansiz, siz tilni o‘rganaman deb xayol ham qilmang, tartib, rejim bo‘lмаган joyda yuksalish qila olmaysiz;

3. Shoshmasdan o‘rganish-til o‘rganar ekansiz siz uni bir vaqtida o‘rgana olmaysiz, tepada aytganimizdek, kunlik rejimda shoshilmasdan tartib bilan o‘rganing, har bir narsaning o‘z vaqtini mavridi bor;

4. Har kuni serial yoki multfilim, kino ko‘rish, muzika eshitish. Bolalar qiynalmasdan o‘rganadigan samarali usullardan biri, ular multfilim orqali harakatni va ohangni, harakatlar bajarilganda, qay holda qanday so‘z ishlatish kerak ekanligini o‘rganadi, bundan tashqari jismoniy badan-tarbiyalarni ham chet el so‘zlarida qay yerda, qaysi mashq bajarish kerak ekanligi va mashqni bajargan holda amalda sinab xotirasiga singdirib oladi.

- Teparoq yoshdagilar esa kino, serial orqali o'rgansa ajoyib natija ko'rsatadi;
5. Bilgan ma'lumotlaringizni dars o'tib o'qituvchilik qiling! O'rgangan har bir ma'lumotingizni kimgadir tushuntirib bersangiz xotirangizda juda zo'r esda qoladi;
  6. Har bir notanish so'zni shu zahotiyoy tarjimasini biling. Shuni bilingki siz o'rganiyatogan vaqtda oldingizdan chiqqan notanish so'zga tobeklikni yo'qotib, hukmronlikni uyg'oting, bitta bilmagan so'zingiz ikkita so'zga aylanadi, ikkita uchtaga uchta so'zdan bitta gap hosil qilsangiz bo'ladi;
  7. Chet ellik do'st orttiring. Bu usul tajribalardan ma'lumki juda samarali hisoblanadi. Siz o'rgangan so'zingizni gapirish yoki yozish orqali siz bu so'zga qanday javob berilishi va grammatikaning keying gap bilan bog'lanishini bilib olasiz;
  8. Dialoglarni eshititing, dialoglar bo'yicha savollarni ishlang. Dialoglar eshitish orqali oila davrasi, bozor, muzey, maktab, sayohat joy v.h joylarda siz bu dialoglarda so'zlarni qayerda qo'llanishini bilib olasiz;
  9. O'rgangan ma'lumotlaringizdan jumla yasang. Har bir so'zlardan gap yasang, amaliyotda qo'llang, gul so'zini chet elda o'rgangan bo'lsangiz gulni tafakkurda jonlantirib, shu so'zni takrorlab xotirada saqlang, amaliyotlarda foydalaning, reklama nomlari firma nomlarini tarjima qiling, hozirgi kunda reklama anchayin rivojlangan reklamalarning aksariyati esa chet el so'zlarida;
  10. Test yoki yopiq testlarni ko'proq bajaring. O'z tajribalarimdan ma'lumki test ishslash juda katta foya beradi. Birgina quiz testlar sizga har bir savol uchun vaqt beradi va shu zahotiyoy to'g'ri yoki xatologini to'g'ri javob qaysi ekanligi ko'rsatib o'tiladi;
  11. Tarjimonlik (darajangizga qarab) Tarjimonlik qiling, kichik-kichik hikoya, ertak, she'r bulardan so'ng darajangizga qarab oshirib boraverasiz.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak chet tilini bilishimiz bizni ancha yuksaltiradi. Oliy ta'limga muassasalarining chet tillari bo'yicha yo'naliishlarning ochilayotgani va ularga qabul kvotalarining ko'payotgani juda quvonarli hol, chet tillarini bilish bugungi kun yoshlari uchun juda zarur. "Qadimiy kitob – «Avesto»da ezgulik timsoli Axura Mazda tilidan shunday deyiladi: «Men o'z Vatanini himoya qila oladigan va ko'p tillarni egallagan farzandlarimni sharafayman».» hamda Gyote aytganidek, "Inson nechta til bilsa, u shuncha marta odamdir", albatta til bilgan inson el biladi, dunyonи biladi, dunyo xalqlarining madaniyat, ma'rifati va tarixidan xabardor bo'ladi, befarq bo'lmaydi!

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydag'i "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-sonli qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydag'i PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni;
3. ODOB NOMA Umumiyl o'rta ta'limga muktabalarining 4-sinf uchun darslik TOSHKENT «YANGIYO'L POLIGRAF SERVIS» 2017;
4. M.M.Jo'rayeva: "Til bilgan-el biladi"-maqola;
5. U.X.Ahnadova: "Xorijiy tillarni o'rganish nega muhim?"-maqola;
6. Zyouz.com;
7. cspi.uz.